

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan
2025-yilda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da Respublika davlat
dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Respublika davlat dasturi bo‘yicha “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 13-fevraldagi 112-sonli buyrug‘i orqali 2025-yilga mo‘ljallangan davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha 32 ta banddan iborat chora-tadbirlar rejası tasdiqlanib, Dasturda belgilangan tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari 47 019,4 mln. so‘m va 13,2 mln. AQSh dollar etib belgilangan edi.

O‘tgan davrda chora-tadbirlar rejasida belgilangan barcha vazifalar o‘z vaqtida, sifatli ta‘minlanishiga erishildi.

Yana shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Respublika davlat dasturidan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan 4 ta band o‘rin olgan bo‘lib, 2025-yil davomida ular ijrosi to‘liq ta‘minlandi: Jumladan:

1. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 6-bandida ko‘zda tutilgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda Mahalliyashtirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish” yo‘nalishida shu yilning o‘tgan yarim yilligida kon texnikasi va texnologik uskunalar uchun import ehtiyot va butlovchi qismlarga bo‘lgan talablar o‘rganilib, ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish reja-jadvali ishlab chiqildi. Unga asosan, 2025-yilda 1402,1 mlrd.so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va belgilangan rejaga nisbatan 103,0 foizga (o‘tgan yilga nisbatan 152.6 foiz) bajarildi.

2. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 8-bandida ko‘zda tutilgan “Yirik korxonalar tomonidan ESG hisobotlarini yuritish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda jamoatchilikka oshkor qilish” yo‘nalishida shu yilning o‘tgan 1-yarim yilligida NKMK” AJga “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk bor korporativ ESG-reytingi berildi. Bu, O‘zbekiston tog‘-kon sanoatida kombinat ESG-reytingini olgan birinchi kompaniya bo‘ldi. Bunda, Kombinatning ekologiya yo‘nalishi ham xalqaro standartlarga muvofiqligi har tomonlama baholangan. Barqaror rivojlanish (ESG) bo‘yicha hisobot tayyorlandi va korporativ saytida yoritildi. Hisobot dizaynini tayyorlash va mustaqil verifikatsiyadan o‘tkazish belgilangan muddatlarda amalga oshirildi.

3. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 12-bandida ko‘zda tutilgan “Muruntov” konini o‘zlashtirishning investitsiya loyihasining navbatdagi bosqichlarini amalga oshirish” yo‘nalishida 2026-yilda mazkur loyihaning texnik-iqtisodiy asosi (TIA) ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-noyabrdagi 907-sonli qarori bilan TIA loyiha tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, 2025-yilda “Muruntov” konining shimoliy tomondagi (3-KL) “Shimoliy-Sharqiy” maydalash yuklash punktini DPP chuqurlashtirish” loyiha-smeta hujjatlar doirasida kurilish-montaj ishlari yakunlandi va obyekt foydalanishga topshirildi. 25-042-sonli daalolatnoma 2025-yil 24-apreldagi 315-sonli hamda 25-074-sonli dalolatnoma 2025-yil 24-sentabrdagi 711-sonli buyruq bilan tasdiqlandi.

Uskuna va jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha loyiha doirasida yuritgichlar, elektrodvigatellar, reduktor, turli uskunalar (PS, GPP yacheykalari, KL-2, KL-3 va h.) uskunalar yetkazib berildi. Bundan tashqari, 1 dona “WK-20” rusumli ekskavator va 1 dona kichik hajmli yuklagich olib kelindi. “Janub-tog‘ jinsi SPT majmuasi qurilishi” yo‘nalishida konveyer konstruksiyalarini o‘rnatish ishlari, maydalash va yuklash punkti jihoz osti poydevorlarini qo‘yish ishlari yakunlandi.

Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, 2025-yilda 36,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi kapital mablag‘lar o‘zlashtirildi. Shundan, qurilish-montaj ishlariga 4,83 mln. AQSh dollari va asbob-uskunalar xarid qilish uchun 28,5 mln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar sarflandi.

4. Respublika davlat dasturining 16-ilogasi 28-bandida ko‘zda tutilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirishga qaratilgan strategiyani amalga oshirish” yo‘nalishida atmosfera havosini ustuvor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish bo‘yicha 2 ta avtomatik stansiyalarni o‘rnatish hamda 6 ta zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish va eskilarni almashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Avtomatik stansiyalarni xarid qilish uchun Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi bilan texnik topshiriq ishlab chiqilib, shartnoma imzolandi.

3 va 5-gidrometallurgiya zavodi hamda Navoiy mashinasozlik zavodiga 3 dona atmosfera havosini ustuvor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish bo‘yicha avtomatik stansiyalar o‘rnatildi. Shuningdek stansionar kuzatuv punktlari o‘rnatish uchun 7 dona stansionar kuzatuv punktlari olib kelindi. Jumladan, 7-gidrometallurgiya zavodiga 3 dona, “Marjonbuloq” koni sanoat-tajriba uchastkasiga 2 dona hamda Navoiy mashinasozlik zavodi quymachilik sexiga bir dona chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatildi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Atrof-muhit muhofazasi bo‘limi.